

TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARING IJOBİY TA'SIRI VA AHAMIYATI

Doniyorova Kamola Baxtiyor qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti yo‘nalishi talabasi

Isankulova Muxlisa Hasanboy qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti yo‘nalishi talabasi

Baxodirxonova Fazilatxon Abzalbek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Maktab menejmenti yo‘nalishi talabasi

ANOTATSIYA

Ushbu maqolada ta’limda innovatsion texnologiyalar haqida tushunchalar keltirilgan hamda pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o‘qituvchi va o‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarning ahamiyati va foydali jihatlari to‘g‘risida tushunchalar keltirilgan

Kalit so‘zlar: raqamlashtirish, oliy ta’lim, ta’limdagi innovatsiyalar, elektron ta’lim, onlayn ta’lim, pedagogik texnologiya, yordamchi ta’lim vositalari, ta’lim berishning texnik vositalar.

ABSTRACT

In this article, concepts about innovative technologies in education are presented, and the main basis of pedagogical technology is concepts about the importance and useful aspects of selected technologies for the teacher and student to achieve a guaranteed result from the set goal.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston maktab ostonasidan boshlanadi. Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha

bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoniga tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi". Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliv ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliv ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliv ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliv ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda. Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

ASOSIY QISIM

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishida qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olishi, har ikkalasi ijobjiy natijaga erisha olishi, o'quv jarayonida o'quvchiro'quvchilar mustaqil fikrlay olishlari, ijodiy ishlay olishlari, izlanishlari, tahlil eta olishlari, o'zлari xulosa chiqara olishlari, o'zlariga, guruhga, guruh ularga baho bera olishi, o'qituvchi ularning bunday faoliyatlar uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bo'lib, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya -bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Ta'lim vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o'qitishni samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta'lim berishning texnik vositalari - o'quv materialini ko'rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi, o'quvchilarga o'quv materialini tushunishlariga va eslab qolishlariga imkon beradi .Bunday vositalarga quyidagilar misol bo'lishi mumkin:

diaproektor, grafoproektor, doska-bloknot, doska-stend, Yordamchi ta’lim vositalari - grafiklar, chizmalar, na’munalar, tarqatma materiallar va boshqalar. O‘quv-uslubiy materiallar - o‘quv materiallar, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o‘quvchilarning mustaqil ishlari faollashtirishga yordam beradi (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar). O‘quvchilarni o‘quv bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har xil turdag'i ta’lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog‘liq:

1. Maqsadni belgilash;
2. Asosiy bilim manbaiga;
3. Ta’lim usuliga;
4. O‘quv materialining yangiligi va murakkabligiga;

5. O‘quvchilarni o‘quv imkoniyatlariga. Innovatsion texnologiya- (innovatsiya inglizcha “innovate”- yangilik kiritish, yangilik, texnologiya esa yunoncha ”texnos”- san’at, mahoratva “logos”- fan) ta’lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish deganidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishdir.

O‘quv jarayoniga bog‘liq eng asosiy natija masofaviy ta’lim platformasi va elektron baholash tizimi joriy etildi. Mazkur tizimda nazorat yozma ishlari talaba tomonidan elektron shaklda topshiriladi, ya’ni tizimga yuklanib undan so‘ng avtomatik ravishda shifrlanadi va tegishli kafedraga tekshirish uchun elektron shaklda jo‘natiladi. Kafedralarda mazkur ishlar professor-o‘qituvchilar o‘rtasida taqsimlanib tizimning o‘zida tekshiriladi, baholanadi hamda qo‘yilgan baho yuzasidan sharh yoziladi, ya’ni nima sababdan shunday baholangani hamda talaba qanday kamchiliklarga yo‘l qo‘ygani ko‘rsatiladi. Tekshirilgan ishning bahosi va ishga yozilgan taqriz talabaning shaxsiy kabinetida ko‘rinadi. Bundan tashqari universitet elektron kutubxonasi ham tashkil etilib unda 10 mingdan ziyod manbalar joylashtirildi va mavjud adabiyotlarni to‘liq raqamlashtirish ishlari davom ettirilmoqda. Boshqaruv nuqtai nazaridan, raqamlashtirish universitetlarga o‘z resurslari va akademik dasturlarini boshqarishni osonlashtiradi. Masalan, raqamli vositalardan talabalarning o‘quv jarayonini boshqarish, professor-o‘qituvchilar va xodimlar faoliyatini kuzatish va resurslarni samarali taqsimlash uchun foydalanish mumkin. Shu o‘rinda, Jizzax davlat pedagogika universitetidagi raqamlashtirish ishlari davom ettirilib, mustaqil universitet elektron boshqaruv tizimi, talabalarning avtomatik maxsus kameralar orqali davomat tizimi joriy etilishi ustida ish olib borilmoqda. Ta’kidlash kerakki, hozirgi vaqtida talabalar oldingilarga qaraganda nihoyatda farq qiladi. Endilikda ularning zamonaviy talablari va extiyojlari mavjud bo‘lib, zamonaviy oliy ta’lim xizmatini ko‘rsatuvchilar ularga munosib bo‘lishlari lozim. Bugungi kunga kelib, zamonning asosiy talabiga ko‘ra ta’lim tashkilotlari, ayniqsa oliy ta’lim tashkilotlari o‘z faoliyatini rivojlantirishda

quyidagi kabi yangi texnologiyalarga tayanishi lozim: moslashuvchan o‘qitish, sun’iy intellekt, UX-dizayn, virtual yoki kibermakon, kengaytirilgan voqelik. Shu o‘rinda, oliv ta’lim tashkilotlari bosiqma-bosqich “Universitet 4.0”, ayrim hollarda “raqamli universitet” yoki “aqli universitet” deya tavsiflanuvchi konsepsiaga o‘tishi zarur.

Demak, zamonaviy raqamli universitet talabalarga va o‘qituvchilarga o‘qitish jarayonini va kommunikatsiyalarni tashkillashtirish, byurokratiyadan xoli avtomatlashtirilgan raqamli qayd va tahlil qilish, individual ta’lim trayektoriyalarini savodli tuzish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarga tezkorlik bilan munosabat bildirishga yordam beradigan qulay imkoniyatlar va xizmatlar taqdim qilishi lozim.Mohiyatan, zamonaviy universitetning barcha bog‘liq jarayonlari raqamli texnologiyalar asosida barpo qilinishi lozim. Bu abituriyentlar bilan ishslash, o‘quv jarayoni va ta’lim sifatining tahlilidan boshlab bitiruvchilarning ishga joylashishi monitoringi va ishda ko‘tarilish bilan tugaydigan katta hajmdagi ma’lumotlarni boshqarishga o‘tishni talab qiladi.Bugungi kunda mamlakatimizda tizimli va izchil ravishda olib borilayotgan ta’lim sohasidagi islohotlar o‘z natijasini ko‘rsatmoqda, universitetlarimiz akademik va moliyaviy mustaqillikka erishdi, o‘zining maqsad va vazifalarini belgilab, zamon talablariga moslashish hamda bugungi kun va kelajak uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatiga egadir. Amalga oshirilayotgan islohotlarning shu asnoda davom ettirilishi, ta’lim tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qonun va qonunosti hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ko‘rsatib o‘tilgan oliv ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalar ijrosi sifatli ta’minlanishi mamlakatimizda ta’limning yuqori cho‘qqilarga chiqishiga va eng asosiysi yoshlарimiz xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo‘la oladigan yuqori malakali kadr bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliv ta’lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta’lim xizmatlarini ta’minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to‘la-to‘kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.Xulosa qilib aytganda aniq fanlarning o‘qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida 3 turdagи o‘quv mashg‘otlariga: ya’ni ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilganlarni kompleks holda qo‘llash tavsiya etiladi. Zamonaviy metodlar va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o‘quvchilarda mantiqiy , aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobilyatlarini rivojlantirish,

raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo‘lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. S. Alixonov. “Matematika o‘qitish metodikasi” . cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2011.
2. Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar moduli bo‘yicha o‘quvuslubiy majmua.Termiz – 2020.
3. Umumiy o‘rta ta’limning matematika fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi .Toshkent-2017
- 4.<https://kitobxon.com/uz/asar/2182>
5. <https://ilm ziyo.com/uz/asar/2182>
6. <https://ta'lim innovatsiya.com/ru/asar/2182>